

“CHARM – MO‘YNA KREATIV GRAFIKASI TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH” MAVZUSINI O‘QITISHDA INNOVASION INTERFAOL METODLAR QO‘LLASH

G.A. Mirboboyeva
Farg‘ona Davlat texnika universiteti

Annotasiya: Ushbu ilmiy maqolada ta‘lim samaradorligini oshirishda o‘ziga xos zamonaviy yondoshuvlaridan biri bu innovasion yondashuv bo‘lib, bunda o‘qitish jarayonlarini tashkil etishda shakl, metod va vositalarning o‘zaro uyg‘unligini hisobga olgan holda tanlash asosida o‘qituvchi va ta‘lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish masalalari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, innovasion texnologiyalar, o‘qitish uslublari, ta‘lim sifati, metod va vositalar, nazariy dars jarayonlari, amaliy dars jarayonlar, ilmiy yondashuv, o‘qituvchi maxorati

Аннотация: В данной научной статье изложены сведения по вопросам развития совместной деятельности педагогов и обучающихся на основе выбора форм, методов и средств организации образовательного процесса с учетом взаимной совместимости форм, методов и средств.

Ключевые слова: педагогика, инновационные технологии, методы обучения, качество образования, методы и инструменты, теоретические процессы обучения, практические процессы обучения, научный подход, мастерство учителя

Abstract : This scientific article presents information on the development of joint activities of teachers and students based on the choice of forms, methods and means of organizing the educational process, taking into account the mutual compatibility of forms, methods and means.

Key words Pedagogy, innovative technologies, teaching methods, quality of education, methods and tools, theoretical teaching processes, practical teaching processes, scientific approach, teacher skills

Ta‘lim samaradorligini oshirishda o‘ziga xos zamonaviy yondoshuvlaridan biri bu innovasion yondashuv bo‘lib, bunda o‘qitish jarayonlarini tashkil etishda shakl, metod va vositalarning o‘zaro uyg‘unligini hisobga olgan holda tanlash asosida o‘qituvchi va ta‘lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish sanaladi. Innovasion yondashuv asosida ta‘lim jarayonini tashkil etishda uning asosiy komponenti interfaol ta‘lim metodlari hisoblanadi.


Interfaol metodlar deganda – ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim jarayonining barcha bosqichlarida sub‘yekt sub‘yekt munosabatini tashkil etuvchi metodlar tushuniladi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda interfaol ta‘limning samarali jihatlarini quyidagicha baholanadi:

1. Interfaol ta‘lim metodlari ta‘lim oluvchilardagi bilish jarayonlarini faollashtirish, o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni aniq vaziyatlarda qo‘llay olish, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ijodiy izlanish imkonini beradi.

2. Interfaol ta‘lim metodlari – ta‘lim oluvchilardagi motivatsiyani, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini, tadqiqotchilik faolligi, kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

3. Interfaol ta'lim muhiti ta'lim oluvchilarda muammolarni ko'ra bilish, tahlili qilish, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, tolerantlik, o'zgarlar fikriga hurmat, jamoadagi hamkorlik, hayotiy qadriyatlarini rivojlantirishga qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Inson voqelik to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni ko'rish, eshitish, hid bilish, tahm bilish, tuyish kabi sezgilar orqali qabul qiladi. Sezgilar orqali qabul qilingan mahlumotlar miyada muayyan xususiyatlariga ko'ra yaxlit holga, mahlum bir tizimga olib kelinishi, yahni ma'lumotlar idrok qilinishi lozim bo'ladi. Axborotlarning uzviyligi va davomiyligini tahminlashga xizmat qiluvchi bu jarayon ularni xotirada saqlash va zarur holatlarda qayta esga tushirishdan iborat bo'ladi. Ma'lumotlarni qabul qilishda qanchalik ko'p sezgi organlari qatnashsa, uni idrok etish, o'zlashtirish va xotirada saqlash shunchalik oson kechadi. Ikkinchi tomondan, har bir kishida qaysidir sezgi organlari ko'proq, qaysilaridir kamroq rivojlangan bo'ladi. Har qanday holatda ham nazariy dars jarayonida, masalan faqat ma'ruza o'qiladigan vaqt taxminan 20 daqiqadan oshmasligi kerak. Chunki o'rganishning dastlabki 20 daqiqasi eng samarali, 20 daqiqadan keyin esa o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi tezda pasaya boshlaydi. Bu hamma takliflar ta'lim diqqatini uzoqroq vaqtgacha saqlab turishga xizmat qiladi. [4]Quyida (1-chizma), misol tariqasida, ta'lim oluvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish ko'rsatkichlari keltirilgan



1-chizma. Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari


Yuqoridagi chizmaga ko'ra, yangi mavzuning bayoni 20-25 daqiqalik ma'ruzadan boshlanishi, so'ng esa 15-20 daqiqa ma'ruza qilingan o'quv materialini vizuallashtirish, ya'ni unga doir ko'rgazmali materiallar asosida tushuntirish, 10-15 daqiqa davomida esa, unga doir biror tajribani namoyish qilish yoki biror misolni tahlil qilish va oxirida 20-25 daqiqa davomida o'quv materialini mustahkamlashga qaratilgan mustaqil yoki guruhiy amaliy mashq o'tkazish tavsiya etiladi. Shuning uchun, nazariy o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, har 20 daqiqa davomida turli ta'lim metodlaridan foydalanib uzatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'lim metodlaridan bunday uyg'unlikda va ketma-ketlikda foydalanish natijasida, nafaqat ta'lim oluvchilarning diqqatini jalb etish darajasini oshirish, balki ta'lim samaradorligini oshirishga ham erishish mumkin.

Psixologik olimlarning ta'kidlashicha, agar bilimlar faqat ma'ruzalar orqali (passiv tinglash yo'lida) berilgan bo'lsa, unda 3 kundan so'ng ularning faqat 25% ni eslash mumkin xolos. Agar u ma'ruzalar o'qish (tinglash), namoyish va ko'rgazmali qilish (ko'rish, ushlab ko'rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to'g'risida bahslashilsa, unda 3 kundan so'ng 50% ni esga tushirish mumkin.

Agarda bilimlar berishda ma'ruzadan, ko'rgazmalilikdan va amaliy topshiriqlarni bajarishdan foydalanilsa (tinglash, ko'rish va amalda bajarish), 3 kundan so'ng 75% ni eslash mumkin. [7] Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, mahlumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo'lib hisoblanadi. Yuqoridagi tasvirdan quyidagi qoida kelib chiqadi:

1. O'quv vaziyatini tayyorlashda interfaol metodlar va audio-vizual vositalarni samarali ishlatish lozim. Bunda birdaniga ko'pgina sensorik kanallar jalb etiladi.

2. O'quv materiali to'g'risida bahslashishga doim imkon bering. O'quv suhbatlar, guruhiy bahs-munozaralar o'tkazish va amaliy topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi, chunki bu metodlar ta'lim oluvchilarni faollikka jalb qiladi. [1] Demak, dars jarayonida an'anaviy metodlar



qo'llanilganda, ta'lim oluvchilarning axborotni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 30% ni tashkil etar ekan. Interfaol metodlar qo'llanilganda esa, ta'lim oluvchilarning axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ko'tarila boradi. Shuning uchun, an'anaviy metodlar bilan birgalikda interfaol metodlarni birgalikda bir-birini to'ldirgan va uyg'unlashgan holda olib borish maqsadga muvofiqdir.

O'quv mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari

“SINKVEYN” METODI

“Sinkveyn” metodi o'quv materiali bo'yicha mustaqil fikr yuritishga iboralar takror ishlatilmasa, tinglovchilarning fikrlash doirasi yanada kengayadi. “Sinkveyn” metodidan foydalanish nisbatan qulaydir. Chunki u tayyorgarlik ko'rish va ijro uchun ham ko'p vaqtni talab etmaydi. Ushbu metodni yakka tartibda va jamoaviy tarzda bajarish ham yaxshi natijalarga olib keladi. Shu sabab, ushbu metoddan barcha turdagi mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. “Sinkveyn” metodi yordamida texnologik jarayonlar va qurilmalar bilan bog'liq bo'lgan har qanday tushunchalar, qoidalar, jarayonning kechishi, uni jadallashtirish yo'llari, texnologik yechimlar, mahsulot turlari, texnologik parametrlar, uskuna va jixozlarning mazmuniga chuqur kirib borish, ularning mohiyatini ochish, puxta va mukammal



o'zlashtirish, bir qator jihatlarini aniqlash, ularga har tomonlama ta'rif berish maqsadida foydalanish mumkin, u talabalarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllanishiga olib keladi. “Sinkveyn”

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

metodini qo'llash texnologiyasi bir ob'yekt bo'yicha ko'p sonli "Sinkveyn" namunalari tuzish uchun imkoniyat yaratadi, ularda so'z va iboralar takror ishlatilmasa, talabalarning fikrlash doirasi yanada kengayadi. "Sinkveyn" metodidan foydalanish nisbatan qulaydir. Chunki u tayyorgarlik ko'rish va ijro uchun ham ko'p vaqtni talab etmaydi. Ushbu metodni yakka tartibda va jamoaviy tarzda bajarish ham yaxshi natijalarga olib keladi. Shu sabab, ushbu metoddan barcha turdagi mashg'ulotlarda foydalanish mumkin[3].



Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustaxkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Xulosa:

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassalarida "Charm–mo'yna kreativ grafikasi texnologiyalarini takomillashtirish" mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va faol ta'lim metodlari orqali ularda talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish yo'llarini ochib berishga harakat qildim. Interfaol pedagogik texnologiya deganda talabalarga mustaqillik berishni tushunaman. Talabalarga bunday imkoniyatni berish, bu faqat talabalarning o'zlarida intilish paydo qilishga va pedagogik mehnat samarasini ko'tarishga sabab bo'ladi. Zero, davr talabi bo'yicha yosh mutaxassaslarni bilimli, mustaqil fikrlaydigan, innovator, komil inson sifatida shakllanishida pedagogik texnologiyalarning asl maqsadi namoyon bo'ladi. Maqolada talabalarga innovasion texnologiyalardan o'qitish texnologiyalarni usullari ko'rsatib o'tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdusattorovna M. G. The Art of Model Crafting: Utilizing A Spectrum of Paint Mediums //American Journal of Technology and Applied Sciences. – 2023. – T. 19. – C. 48-54.
2. Mirboboeva G., Isroilova N., Rakhmonova M. A COMPARATIVE ANALYSIS OF FLAX FIBRE FOR INDUSTRIAL APPLICATIONS //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 11-16.
3. Mirboboyeva G. A. QO ‘LDA BAJARILADIGAN KASHTA CHOKLARI TURLARINI O ‘RGANISH //YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 870-873.
4. Maxmudjon T., Gulxayo M. GAZLAMALARNI BO ‘YASHDA ISHLATILADIGAN BO ‘YOQLAR HAQIDA MA’LUMOTLARNI O ‘RGANISH //IZLANUVCHI. – 2025. – T. 1. – №. 7. – C. 304-307.
5. Mirboboyeva G. A. et al. ZIG ‘IR TOLASINI OLISH TEXNOLOGIYASINI QADIMGI USULLARI //YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 2. – №. 8. – C. 702-707.
6. MG Abdusattorovna, UN Qosimjonovna [Retro style in modeling women's clothing](#) Asian Journal of Multidimensional Research 10 (9), 372-376
7. Mirboboeva Gulhayo Abdusattorovna Tursunov Davron Shamsiddin oqli (2023). Theoretical justification for improving the design of special clothing to optimize its design. academia globe: inderscience research, 4(03), 246–251. <https://doi.org/10.17605/osf.io/na6t4>
8. Tursumatova S., Tursunov D., Isroilova N. Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – T. 17. – C. 204-209.
9. Isroilova N. ANALYTICAL STUDY AND FORMATION OF THE ASSORTMENT OF WOMEN'S LIGHTWEIGHT CLOTHING //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – T. 3. – №. 6. – C. 445-451.
10. Isroilova N. RESEARCH ON THE PRODUCTION OF MEDICAL SUITS BASED ON FLAX FIBER FABRICS //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – T. 3. – №. 6. – C. 405-409.
11. Xalilova, D., Berdiyeva, R. N., & Raxmonova, M. (2024). ANDOZALARNI TEXNIK KO ‘PAYTIRISHNING ASOSIY PRINSIPLARI VA USULLARI. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2(10), 195-200.
12. Berdiyeva, R. N., Xaydarova, I., & Xalilova, D. (2024). TO ‘QUV-TRIKOTAJ MAHSULOTLARI ASSORTIMENTLARI TAHLILI. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2(10), 201-206.
13. Abduqodirovna, B. R. N. Ommaviy va yakka tartibda buyurtma bo ‘yicha tikiladigan kiyimlarni yoqalarini loyhalash xususiyatlarI.(2024). Journal of Science-Innovative ResearchinUzbekistan, 2(3), 283-288.
14. Berdiyeva R. A., O‘rmonjonov M. M. FLAT NEEDLE KNITTING MACHINES: STRUCTURE, OPERATING PRINCIPLE AND FIELDS OF USE //Web of Technology: Multidimensional Research Journal. – 2024. – T. 3. – №.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

15. Tursunova K. -METHODS OF MOIST-HEAT TREATMENT OF CLOTHES AND ANALYSIS OF THE EQUIPMENT USED IN THEM //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – T. 3. – №. 6. – C. 499-503.

16. Ilyosjon o'g' G. A. et al. AYOLLAR PLASHINING MASHHUR BRENDLAR BO 'YICHA TAHLILI //IZLANUVCHI. – 2025. – T. 1. – №. 6. – C. 191-196.

17. Nazarova M., Kayumov J., Tursunova K. Development of heating coats in Uzbekistan on the basis of analysis of the technologies of local wool fibers processing in small enterprises //PROBLEMS IN THE TEXTILE AND LIGHT INDUSTRY IN THE CONTEXT OF INTEGRATION OF SCIENCE AND INDUSTRY AND WAYS TO SOLVE THEM:(PTLICISIWS-2022). – 2023. – T. 2789. – №. 1. – C. 040005.

